



ATROF-MUHIT MUHOFAZASI - JAMIYATNING UMUMIY MAS'ULIYATI

Berdiqulova Maftuna

*Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti,
Ingliz tili filologiyasi fakulteti, 2-kurs talabasi*

XXI asr texnologiya va ilm-fan taraqqiyoti asridir. Biroq bu yutuqlar bilan birga ekologik muammolar ham jiddiy tus olmoqda. Havo, suv, yer kabi tabiiy boyliklarning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, iqlim o'zgarishi, chiqindilarning to'planishi kabi muammolar butun dunyo ahli oldida dolzarb masala sifatida turibdi. Ayniqsa, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari natijasida insoniyat o'z yashash muhitini tobora ifloslantirmoqda. Bugun tabiatni asrash nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaroning burchiga aylanishi zarur.

Atrof-muhit va inson o'rtasidagi bog'liqlik

Atrof-muhit - bu inson yashaydigan tabiiy muhit bo'lib, uning holati inson sog'ligi, turmush darajasi va umumiy hayot sifati bilan bevosita bog'liq. Havo ifloslanishi oqibatida insonlarda nafas olish kasalliklari ortadi, suv ifloslanganida ichimlik suvi taqchilligi yuzaga keladi. Yerning degradatsiyasi esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish imkoniyatini kamaytiradi.

Ekologik muammolarning sabablar

Atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar:

- Sanoat chiqindilarining to'g'ridan-to'g'ri tabiatga tashlanishi
- Transport vositalarining ko'pligi va havoga chiqarayotgan zararli gazlar
- Plastmassa va qayta ishlanmaydigan chiqindilar ko'pligi
- Noqonuniy daraxt kesish
- Suv resurslarining isrofgarchiligi va ifloslanishi

Jamiyat va har bir fuqaroning mas'uliyati

Ekologik muhofaza faqat davlat organlari zimmasiga yuklatilmasligi kerak. Har bir fuqaro ekologik madaniyatga ega bo'lishi, chiqindilarni ajratib tashlashi, plastmassa mahsulotlardan ozroq foydalanishi, energiyani tejashi lozim.

Xulosa

Tabiatni asrash - kelajakni asrashdir. Har bir harakat, kichik bo'lsa ham, ekologik xavfsizlik sari qo'yilgan muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 2013 yil.
2. "Yashil makon" loyihasi.
3. "Ekologiya asoslari" - O'quv qo'llanma, 2022.